

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISAJON SULTON ASARLARIDA GERMENEVTIK TAHLIL: MATN POETIKASI VA MA'NO QATLAMLILIGI ("BOQIY DARBADAR", "SUVDAGI KOSA", "O'RMONDAGI KULBA" VA "FARISHTA" ASARLARI MISOLIDA)

Jo'rayeva Surayyo Tolibjonovna

Samarqand davlat pedagogika instituti, magistrant.

E-mail: jorayevasurayyo59@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-4093-7799>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek nasrining ko'zga ko'ringan vakili Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", "Suvdagi kosa", "O'rmondagi kulba" hamda "Farishta" kabi asarlari germenevtik va poetik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda matnning ramziy-metaforik tabiati, muallif konsepsiyasi hamda asarlar qatlamlarida yashiringan falsafiy-mifologik va ma'naviy-axloqiy ma'nolar ochib beriladi. Germenevtik yondashuv vositasida adibning badiiy olamiga xos bo'lgan timsollar tahlil etilib, qahramonlarning ruhiy kechinmalari hamda insoniyatning mavjudlik muammolari o'rtasidagi bog'liqlik yoritiladi. Tadqiqot natijalari Isajon Sulton nasrining ko'p qatlamli va teran ma'no tuzilishini anglashga hamda zamonaviy o'zbek romanchiligi va qissachiligida matn poetikasini baholashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Isajon Sulton, germenevtika, matn poetikasi, ma'no qatlamliligi, metafora, badiiy timsol, zamonaviy nasr, falsafiy tahlil.

ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСАЖОНА СУЛТОНА: ПОЭТИКА ТЕКСТА И МНОГОСЛОЙНОСТЬ СМЫСЛА (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ «ВЕЧНЫЙ СКИТАЛЕЦ», «ЧАША НА ВОДЕ», «ХИЖИНА В ЛЕСУ» И «АНГЕЛ»)

Жураева Сурайё Толибжоновна

Самаркандский государственный педагогический институт, магистрант.

Аннотация.

В статье с герменевтической и поэтической точек зрения анализируются произведения одного из видных представителей современной узбекской прозы Исажона Султона — «Boqiy darbadar», «Suvdagi kosa», «O'rmondagi kulba» и «Farishta». В исследовании раскрываются символическо-метафорическая природа текста, авторская концепция, а также философско-мифологические и духовно-нравственные смыслы, скрытые в различных смысловых слоях произведений. Посредством герменевтического подхода анализируются образы и символы, характерные для художественного мира писателя, освещается взаимосвязь между внутренними переживаниями героев и экзистенциальными проблемами человечества. Результаты исследования способствуют пониманию многослойной и глубокой смысловой структуры прозы Исажона Султона, а также оценке поэтики текста в современной узбекской романистике и повестной прозе.

Ключевые слова: Исажон Сulton, герменевтика, поэтика текста, многослойность смысла, метафора, художественный образ, современная проза, философский анализ.

HERMENEUTIC ANALYSIS OF ISAJON SULTON'S WORKS: TEXTUAL POETICS AND LAYERS OF MEANING (BASED ON THE ETERNAL WANDERER, THE BOWL ON THE WATER, THE CABIN IN THE FOREST, AND THE ANGEL)

Jo'rayeva Surayyo Tolibjonovna

Samarkand State Pedagogical Institute, Master's Student.

Abstract.

This article provides a hermeneutic and poetic analysis of the works of Isajon Sulton, a prominent representative of contemporary Uzbek prose, including *Boqiy darbadar*, *Suvdagi kosa*, *O'rmondagi kulba*, and *Farishta*. The study explores the symbolic and metaphorical nature of the texts, the author's conceptual vision, and the philosophical-mythological and spiritual-moral meanings embedded in their various semantic layers. Through a hermeneutic approach, the images and symbols characteristic of the writer's artistic world are analyzed, with particular attention to the relationship between the characters' inner experiences and the existential problems of humanity. The findings contribute to a deeper understanding of the multilayered and profound semantic

structure of Isajon Sulton's prose and provide a basis for evaluating textual poetics in contemporary Uzbek novels and novellas.

Keywords: Isajon Sulton, hermeneutics, textual poetics, layers of meaning, metaphor, literary image, contemporary prose, philosophical analysis.

Kirish. Bugungi zamonaviy o'zbek nasri shunchaki voqealar silsilasini bayon etishdan voz kechib, inson ruhiyatining murakkab manzaralariga, uning borliq va yaratilish mohiyatini anglashga bo'lgan teran intilishlariga yuz tutmoqda. Adabiyot va so'z san'atining asl qimmatini ham insonni o'z-o'zini anglashga, ruhiy poklanish va falsafiy mushohadaga chorlay olishi bilan belgilanadi. Ushbu ma'naviy-badiiy mezonlar nuqtayi nazaridan yondashilganda, yozuvchi Isajon Sulton ijodi zamonaviy nasrimizda badiiy tafakkurning yangi bosqichini, so'zga va matnga alohida mas'uliyat bilan yondashish madaniyatini shakllantirgan yorqin hodisa sifatida bo'y ko'rsatadi. Isajon Sulton asarlarida sujet harakati yoki voqealar rivoji birlamchi o'ringa chiqmaydi; aksincha, har bir epizod, qahramon kechinmasi, muloqot va hatto bir qarashda oddiy tuyulgan detallar ham so'z ortiga yashiringan teran ma'nolarni anglashga undaydigan ma'naviy muloqot maydoniga aylanadi. Yozuvchi matni kitobxondan shunchaki kuzatuvchi bo'lishni emas, balki asar ichiga kirib, uning ma'no qatlamlarida birga sayr qilishni, muallif bilan hamnafas holda fikrlashni talab etadi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy o'zbek nasrida badiiy matn falsafiy xarakter kasb etib, matn osti ma'nolari (subtekst), ramziy obrazlar va allegorik tuzilmalarga boyib bormoqda. O'zbekiston xalq yozuvchisi Isajon Sulton ijodi ushbu jarayonning yorqin namunasidir. Adib asarlari sirdan qaraganda voqeband sujetga ega bo'lsa-da, ularning zamirida insonning ichki kechinmalariga oid muammolar yotadi. Yozuvchi matnlarini an'anaviy realist poetika doirasidagina emas, balki zamonaviy adabiyotshunoslik va falsafaning yetakchi metodologiyalaridan biri bo'lgan germeneytika (talqin va tushunish nazariyasi) nuqtayi nazaridan tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy va nazariy dolzarblikka ega. Germaneytik yondashuv badiiy matnni shunchaki ma'lumot tashuvchi vosita emas, balki kitobxon va muallif o'rtasidagi doimiy muloqot hamda ma'no hosil qilish jarayoni sifatida baholaydi. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani, "Suvdagi kosa", "O'rmondagi kulba" va "Farishta" hikoyalari zamonaviy insonning ruhiy izlanishlari, ma'naviy inqirozlari va komillik sari intilishlarini ramziy va mifologik qarashlar orqali aks ettirgan. Ushbu asarlarni germeneytik tahlil etish badiiy asardagi yashirin ma'no qatlamlarini ochish, muallifning badiiy dunyoqarashini belgilash va zamonaviy o'zbek nasri poetikasining rivojlanish tamoyillarini aniqlash imkonini beradi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani hamda "Suvdagi kosa", "O'rmondagi kulba", "Farishta" hikoyalari germeneytik metod yordamida tahlil qilish orqali asarlardagi matn osti ma'no qatlamlari, ramziy poetika va ekzistensial mazmunni ochib berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Tadqiqotda qiyosiy-poetik, strukturaviy-semantik, qiyosiy-tipologik va eng asosiysi – germeneytik tahlil metodlaridan foydalanildi. Germaneytik tahlil metodologiyasi F. Shleyermaxer, V. Diltey, M. Xaydegger va G. G. Gadamerning falsafiy-germenevtik konsepsiyalariga hamda o'zbek va jahon adabiyotshunosligidagi matnni tushunish va talqin qilish nazariyalariga tayanadi. Nemis olimi Gans-Georg Gadamer (zamonaviy falsafiy germeneytika cho'qqisi) "Matnni talqin qilish – bu o'tmish bilan hozirgi zamonning 'ufqlar tutashuvi' (*fusion of horizons*) hisoblanadi. Gadamerning fikricha, mutlaq xolis talqin mavjud emas. Har bir o'quvchi matnga o'z davri va qarashlari bilan yondashadi. Haqiqat muallif niyati va o'quvchi talqini o'rtasidagi muloqotda tug'iladi" [1; 1-b.], degan qarashni ilgari suradi.

O'zbek adabiyotshunoslaridan D. Quronov badiiy asar tahlili haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Badiiy adabiyot hamma vaqt 'kecha' yoki 'bugun'ning badiiy tahlili asosida kishilik jamiyatining 'erta'si haqida fikr aytishga intiladi. Zero, jamiyatdagi joriy holat, undagi rivojlanish tamoyillarining badiiy tadqiqi bunga yetarli asos beradi" [2; 44-b.]. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asari aynan kecha va bugunni o'zida birlashtirib, kelajak qanday bo'lishi haqidagi global muammolarni yoritib bergan asarlardan biridir. Yozuvchining ijodi haqida so'z yuritilganda, adabiyotshunos N. Rahimjonov, S. Quronovlar adibning nasriy asarlaridagi ramziylik, mifologik psixologizm hamda falsafiy mushohadakorlikni alohida e'tirof etishgan. Biroq adibning "Boqiy darbadar", "Suvdagi kosa", "O'rmondagi kulba" va "Farishta" asarlarini yaxlit germeneytik doira tamoyillari asosida, asarlar poetikasidagi matn osti ma'no mexanizmlarini maxsus tadqiqot obyekti sifatida tahlil qilish o'zbek adabiyotshunosligida haligacha tizimli ravishda amalga oshirilmagan edi. Ushbu maqola ayni shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Asosiy tahlil. Germaneytika – matnni tushunish, undagi yashirin ma'nolar, timsollar va muallifning pinhona g'oyalarini talqin qilish san'atidir. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani germeneytik nuqtayi nazardan bir necha qatlamli – mifologik, falsafiy, diniy va zamonaviy – tuzilishga ega bo'lib, insoniyatning qismati, gunoh, tavba va abadiyat muammolarini tadqiq etadi. Asarning sujet chizig'i jahon adabiyotida mashhur bo'lgan Ahasfer (Mangu darbadar) afsonasiga borib taqaladi.

Sujet boshida Etikdo'zning Iso Masihga (matnda "Muborak Kishi") shafqatsizlik qilishi, uni itarib yuborishi va buning evaziga qarg'ishga (duoibadga) duchor bo'lishi mifologik ildizning bevosita in'ikosidir. Etikdo'z – umumiy insoniyat timsoli. U ma'naviy haqiqatga va ilohiylikka nisbatan loqayd, tor doiradagi o'z manfaati (uyni asrash, ayg'oqchilardan qutulish) uchun kurashuvchi oddiy "avom"ni anglatadi. Uning jazosi – o'lim emas, balki o'lolmaslik. Germaneytik nuqtayi nazardan, ma'naviy haqiqatni rad etgan inson abadiy ruhiy halovatdan mahrum bo'ladi va bu eng og'ir jazodir.

Yozuvchi tarixiy va metafizik vaqtni – Qadimgi Yaqin Sharq (Qizil dengiz, sahro, Masih davri), O'rta Osiyo (Tiyonshon tog'laridagi avliyo), islomiy rivoyatlar (Xizr alayhissalom) va zamonaviy texnologik dunyoni (Boeing 787 Dreamliner, genetik tadqiqotlar) – bir nuqtaga jamlaydi. Bu usul insoniyat ma'naviy muammolarining zamonga

bo'ysunmasligini ko'rsatadi. Ikki ming yil avvalgi Etikdo'zning ma'naviy inqirozi va bugungi kunda superlaynerda uchib ketayotgan olimning (Professor Ziyoy) dunyoni anglash istagi bir zanjirning halqalaridir. Sahro va Boeing 787 insoniyatning moddiy rivojlanishini ko'rsatsa-da, uning ruhidagi "darbadarlik" o'zgarmay qolayotganini bildiradi.

Asarda qo'llangan timsollar ham alohida ahamiyatga ega. Oq bulut va chuqur suvlardan chiqqan bulut ilohiy rahmat va begunohlik belgisi bo'lib, Muborak Kishining ustida soya solib yuradi. U ma'sumlik va ilohiy nazorat timsolidir. Qora chumchuqlar – o'yning o'n uchinchi kuni va juma kuni kelgan qora qushlar – oqibat, qismat va qarg'ish yukini tashuvchi xabarchilar sifatida namoyon bo'ladi. Ular insoniyatning o'z qo'li bilan tayyorlagan kulfatining zabonsiz guvohlaridir. Tosh va anjir daraxti ham muhim ramziy yuk tashiydi. Avliyo va badaviylar suhbatida keltirilgan tosh tasodiflar zamirida yotgan ilohiy intizomni (qadarni) anglatadi. Dunyoda hech bir narsa, hatto bir qum zarrasi ham bejiz yaratilmagan. Avliyo g'oridagi anjir esa qanoat va rizqning ilohiy manbai timsolidir. Samum – qaynoq shamol – matnda ma'lumot va ilohiy buyruqni tashuvchi vositachi sifatida keladi. U jazoni ham, xabarni ham keltiradi.

Matnda kutilmagan falsafiy ziddiyat o'rta tashlanadi: *"Iblisning borligi inson bolasi uchun yaxshidir. Olovning mavjudligi temirning toblanishi uchun lozim bo'lgani kabi..."* [3; 56-b.]. Muallif sinov va yovuzlikning mavjudligini inson kamoloti uchun zaruriy shart sifatida talqin qiladi. Etikdo'z (Ahasfer) o'zini Iblis kabi "ibrat" deb oqlamoqchi bo'ladi, ammo badaviylar va avliyo uning bu soxta donishmandligini rad etadi. Inson o'z gunohini "qismat" yoki "ilohiy hikmat" ortiga yashira olmaydi. Tavbasiz abadiyat shunchaki ma'nosiz va besamar daydirdir. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romani inson va qadar, gunoh va tavba, moddiyat va ruh o'rtasidagi ziddiyatlarni germeneytik doirada tahlil etuvchi yuksak nasriy namunadir.

Ijodkorning nafaqat yirik epik asarlarida, balki hikoyalarida ham global muammolar yoritiladi. Jumladan, "Suvdagi kosa" hikoyasida ikki nafar do'st (yoki hamroh) bitta qayiqda ochiq ummunda qolib ketishi voqeasi keltirilgan. Ular yo'nalish yo'qolgani, suv va shamol oqimi, quyoshning botishi hamda sohil qaysi tomondaligi haqida keskin tortishadilar. Chag'alaylarning yo'qolishi, havo va shamolning o'zgarishi ularni halokat yoqasiga kelganidan ogoh etadi. Zulmat va dahshatli to'fon boshlanadi.

Hikoyadagi asosiy konfliktlar ijtimoiy-munosabat konflikti va ichki (ruhiy) konfliktidan iborat. Ikki do'st o'rtasidagi ishonchsizlik, bir-birini suvga itarib yuborish haqidagi shubhali xayollar va hayot-mamot kurashidagi ziddiyat ushbu konfliktlarni kuchaytiradi. Qahramonning o'z Vatani, ildizlaridan uzilgani va notanish, begona tabiat olamida o'zligini yo'qotib qo'yish qo'rquvi ham ichki ziddiyatning asosiy ko'rinishlaridan biridir.

Isajon Sulton nasrida har bir detal va tasvir chuqur falsafiy ma'no tashiydi. Parchadagi bosh ramzlardan biri qayiq va suvdagi kosadir: *"Qayig'imiz suv ustida turgan kosaga o'xshamaydimi?"* Qayiq – inson hayoti yoki insonning ojiz jismi. Kosa esa insonning bu dunyodagi o'rni va qadriga bo'ysunganligining belgisidir. Kosaning suv ustida oqishi o'z ixtiyori bilan emas, suvning – taqdir, ilohiy irodaning – hukmi bilandir. Bu yerda inson va koinot, iroda va qismat o'rtasidagi munosabat ko'rsatilgan.

Ummon va to'fon bepoyon va noma'lum dunyo ramzidir. Inson o'zining xavfsiz va tushunarli makonidan – Yurt, Vatandan – uzilganda duch keladigan ma'nosizlik, vahima va chalkashliklar shu obrazlar orqali ifodalanadi. Vatan va begonalik ziddiyati ham alohida ahamiyatga ega. Yurt (o'tmish): *"Diyorimda qorong'ilik ham chiroyli cho'kardi... bedazorlar isi, sut isi, rayhonlar bo'yi..."* – tartib, uyg'unlik, ilohiy va insoniy yaqinlik, xotirjamlik hamda ma'noga ega bo'lgan olam ramzidir. Ummon (hozirgi holat): *"Sho'r suv va baliq hidi... begona tillarda chug'urayotgan qushlar..."* – tartibsizlik, begonalashuv va ma'nosizlik makonidir. Shamol o'zgarishlar va taqdir shiddatini ifodalaydi. *"Shamol parpiragi"* esa inson shuurining chigalligi, chorasizlik bilan qorishgan hayqirig'idir. Inson to'fon ichida xuddi parpirak kabi o'z ixtiyorisiz charx uradi.

Parchaning eng yuqori nuqtasi tasavvufiy falsafa chorrahasi bo'lib xizmat qiladigan Jaloliddin Rumiy iqtibosidir: *"Kishi suvga tamomila g'arq bo'lganida, undan ko'ringan har bir harakat va ish o'ziniki bo'lmay, suvga tegishlidir."* Bu tasavvufdagi "fano" – o'zligini ilohiy e'tiqod va iroda ichida yo'qotish – hamda "tavakkul" maqomiga ishoradir. Qahramon dastlab o'z aqli va bilimi bilan – quyosh, shamol, oqimga qarab – yo'nalish topmoqchi bo'ladi va muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Lekin butunlay chorasiz qolib, o'zining "hech kim va hech narsa" emasligini anglagach, jilovni Mutlaq Kuchga – Yaratganga – topshiradi. U endi to'fondan emas, balki faqat Qadardan umid qiladi.

Dilorom va Yaratganga intilish shunchaki yerlik sevgiliga intilish emas, balki muvaffaqiyat, Haqiqat, Vatan, ilohiy jamol va ruhning haqiqiy maskaniga intilish ramzidir. Inson faqat o'sha Diloromga bo'lgan e'tiqodi va muhabbati tufayligina to'fonda g'arq bo'lib ketmaydi. Barcha azoblar, sinovlar va qorong'u tunlar shu Diloromning qadriga yetish va unga erishish vositasi sifatida anglanadi. Hikoyadagi asosiy g'oya aql va mantiq ojiz qolgan, inson o'zligini yo'qotgan to'fonli dunyoda uni faqat e'tiqod, ruhning ildizlarga bo'lgan sodiqligi va mutlaq irodaga topshirilishgina halokatdan qutqarib qolishi mumkinligi bilan bog'liq.

Adibning "O'rmondagi kulba" va "Farishta" hikoyalarida ham inson ruhiyatining tanholik, qorong'ulik va o'z-o'zi bilan yuzma-yuz kelish holati falsafiy jihatdan tadqiq etiladi. "O'rmondagi kulba" hikoyasidagi bosh qahramon kulbaga tasodifan kelib qolmaydi. Bu – ruhiy zarurat. Germeneytik nuqtayi nazardan, kulbaga kirish dunyoviy chalg'ishlardan uzoqlashish va g'ayrioddiy, oliy tajribaga erishish jarayonidir. Qahramon kulba ichida o'tirib, o'zining o'tgan umrini, qilgan amallarini va borliqning mohiyatini mushohada qiladi. Muallif kulbadagi har bir detalni – yonib turgan shamni, eshik zulfinini va boshqa unsurlarni – ramziy ma'no bilan yuklaydi. Asar kulminatsiyasi kulbadan chiqish jarayoni bo'lib, u yangilanish va ruhiy uyg'onish sifatida talqin qilinadi. Qahramon kulbaga kirgan avvalgi odam sifatida emas, balki o'zligini topgan va dunyoga boshqacha ufq orqali qaraydigan yangi inson sifatida o'rmonni tark etadi.

"Farishta" hikoyasi adibning poklik, ma'naviy go'zallik, gumanizm va insoniy tubanlik to'qnashuviga bag'ishlangan eng ta'sirchan asarlaridan biridir. Asarda ilohiy va dunyoviy, ruhiy va moddiy tushunchalar o'rtasidagi ziddiyat germeneytik doira orqali ochib beriladi. "Farishta" obrazining polisemantik (ko'p ma'noli) xarakteri haqida G.

Gadamer adabiyotdagi mifologik obrazlar haqida soʻz yuritganda, ularning tayyor semantik qolip emas, balki dinamik maʼno manbai ekanini taʼkidlaydi. Hikoyada “farishta” harflar va soʻzlar darajasida ilohiy mavjudot boʻlsa-da, matn osti qatlamida u mutlaq poklik, begʻuborlik, insoniyatning yoʻqotgan maʼnaviy sifatlari va ezgulikning metaforasidir. Farishtaning qanotlari – jismoniy organ emas, balki maʼnaviy yuksaklik, begʻaraz sevgi va ezgulik ramzidir. U odamlarning chirkin qarashlari va manfaatparastligi orasida “qanotsiz” boʻlib qoladi. Hikoyada farishtaning yerga tushishi, odamlarning farishta boʻlgan munosabati orqali muallif jamiyatdagi maʼnaviy tubanlikni, shafqatsizlikni va shu bilan birga, ezgulikka boʻlgan yashirin ehtiyojni ochib beradi. Isajon Sulton “Farishta” hikoyasida oʻquvchini oʻz ichidagi “farishtalik” va “shaytonlik” oʻrtasidagi kurashni tahlil qilishga va oʻz maʼnaviy holatini germinenvtik taftish etishga undaydi.

Natijalar va muhokama. Yuqorida tahlil qilingan toʻrtta asar (“Boqiy darbadar”, “Suvdagi kosa”, “Oʻrmondagi kulba”, “Farishta”) misolida Isajon Sultonning individual mualliflik poetikasi va matn osti maʼno hosil qilish texnikalarini umumlashtirish mumkin. Adib matnlarida germinenvtik talqinni yuzaga keltiruvchi yetakchi poetik usullar quyidagilardan iborat: Isajon Sulton nasrida voqelik hech qachon shunchaki voqelik sifatida berilmaydi. Har bir makon (oʻrmon, kulba, yoʻl, shahar), har bir buyum (kosa, sham, qanot) va har bir holat (darbadarlik, suv ustida qalqish, tanholik) borliqqa oid va axloqiy ramz darajasiga koʻtariladi. Bu usul matnning bir meʼyorda oʻqilishiga yoʻl qoʻymaydi va kitobxondan doimiy ravishda matn osti maʼnosini qidirishni talab qiladi.

Yozuvchi hikoyalarida ortiqcha tafsilotlar, dabdabali sifatlashlardan qochadi. Soʻzlar maʼno yuki bilan toʻyintirilgan. Bitta jumlada ham umumiy falsafiy taʼlimot, ham ruhiy holat mujassamlashtiriladi. Bu esa germinenvtik tahlilda har bir soʻz va iborani grammatik hamda semantik jihatdan taftish qilishni taqozo etadi. Ijodkor qalamining oʻziga xosligi ham kitobxonga qatʼiy, bir maʼnoli va yakuniy hukmni yuklamaydi. “Boqiy darbadar”da ham, “Suvdagi kosa” yoki “Farishta”da ham xulosa ochiq qoladi. Qahramonlarning taqdiri va gʻoyaviy yechim kitobxonning tafakkur darajasiga, ufqlar tutashuviga havola etiladi. Bu esa badiiy matnning yashash muddatini uzaytiradi va uni koʻp martalik talqinlar uchun ochiq qiladi.

XULOSA. Adib asarlarida inson borligʻi, uning dunyodagi oʻrni, oʻzlikni anglash va komillik sari intilish motivlari yetakchilik qiladi. “Boqiy darbadar” romani, “Suvdagi kosa”, “Oʻrmondagi kulba” hamda “Farishta” hikoyalarini germinenvtik metod yordamida tahlil qilish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi. Haqiqiy darbadarlik – jismoniy kezish emas, balki ruhning va eʼtiqodning qoʻnim topolmasligidir. Dunyodagi har bir hodisa, texnika taraqqiyoti (Boeing 787) yoki qadimiy afsonalar ortida Yaratganning yagona va mukammal nizom-intizomi yotadi. Inson maʼnaviy haqiqatni rad etsa, u vaqt ichida abadiy yashasa-da, mohiyatan “yoʻqlikka” va unutilishga mahkumdur. “Boqiy darbadar”dagi ruhiy sarsonlik, “Suvdagi kosa”dagi shakl va mazmun dialektikasi, “Oʻrmondagi kulba”dagi ruhiy tanholik hamda “Farishta”dagi poklik va tubanlik ziddiyati inson ruhiyatining murakkab qirralarini koʻrsatadi. Isajon Sulton asarlari bugungi kun kitobxoni uchun kerak boʻlgan maʼnaviy ozuqa desak, ayni haqiqatdir.

Adabiyotshunos olim Sh. Jabborov germinenvtika haqidagi maqolasida shunday fikr bildirgan: “Falsafiy germinenvtika Forobiyning aksidensiyalarning koʻchish qonunida ham bor. “Rasoil ul-hukamo” taʼkidlashicha, tushunishdan avval anglash keladi”. Demak, insoniyat bugungi kunda amalda qoʻllaydigan har bir harakatini anglab bajarishi kerakligini bobolarimiz oʻz asarlarida yozib ketgan ekan. Yozuvchimiz bu qarashlarni yangicha talqinda kitobxonlarga uqtirishga harakat qilmoqda desak, mubolagʻa boʻlmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hans-Georg Gadamer. Wikipedia. – Hans-Georg Gadamer
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
3. Sulton I. Boqiy darbadar. – Toshkent: Tilsim, 2023.
4. Sulton I. Alisher Navoiy. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2022.
5. Sulton I. Suvdagi kosa: hikoya. – Ziyouz.com <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-suvdagi-kosa-hikoya>.
6. Sulton I. Maʼsuma. – Toshkent: Dunyo nashr, 2025.
7. Sulton I. Farishta: hikoya. – Ziyouz.com <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-farishta-hikoya>
8. Sulton I. Oʻrmondagi kulba: hikoya. – Ziyouz.com <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/isajon-sultonov-1967/isajon-sulton-o-rmondagi-kulba-hikoya>
9. Sulton I. Bilga Hoqon. – Toshkent: Zamin nashr, 2024.
10. Jabborov Sh. Germinenvtika. – 2006. – Ziyouz.com <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/shukur-jabborov-germinenvtika-2006>